



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 128 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukxonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
Musayeva Shoira Azimovna	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
Ж.Я.Нуриллаев	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta’siri tahlili.....	37
Xolmamatov Farhodjon Kubaevich	
O‘zbekiston respublikasida aholi bandligini ta’minlashdagi dolzarb masalalar	44
Ibragimov Elmurod Gulboynor o‘g‘li	
O‘zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta’minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta’sirini ekonometrik tahlil qilish.....	48
Fayziyev Rabim Alikulovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti	60
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qishloq xo‘jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari	67
Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	
O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik)	72
Qodirov Farxod Amirovich, Bo‘ribaeva Qundiz Muratbaevna	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
Mahamatova Maftuna	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o‘zbekiston miqyosida.....	83
Koshanov Abdimurat Azat uli	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o‘g‘li	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o‘g‘li	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo‘llari.....	110
Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna	
Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida	117
Nodir Xidirov G‘iyosaliyevich	
Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidiligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati	122
Bauyetdinov M.J.	



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIY TAJRIBASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI

Bauyetdinov M.J.

TDIU dotsenti, i.f.f.d.

ORCID: 0000-0002-1383-8334

m.bauetdinov@tsue.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha xorijiy tajribalar o'rganilishi natijasida O'zbekiston sharoitida tajribalarni qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodchilarning fikrlari o'rganilgan va muallif fikrlari keltirilgan. Shu bilan birga, O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda xorijiy tajribalarni qo'llashdagi mavjud muammolar keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: likvidlik, moliyaviy barqarorlik, joriy aktivlar, pul mablag'lari, tovar-moddiy zaxiralar, joriy majburiyatlar, kreditor qarzdorlik, debitor qarzdorlik.

Abstract: This article develops proposals and recommendations for applying foreign practices in ensuring the liquidity and financial stability of business entities under the conditions of Uzbekistan, based on a study of international experience. During the research process, the opinions of economists regarding the provision of liquidity and financial stability for business entities were analyzed, and the author's views were also presented. Additionally, the article highlights existing problems encountered when applying foreign experience to ensure the liquidity and financial stability of business entities in Uzbekistan.

Key words: liquidity, financial stability, current assets, cash funds, inventory, current liabilities, accounts payable, accounts receivable.

Аннотация: В данной статье на основе изучения зарубежного опыта по обеспечению ликвидности и финансовой устойчивости хозяйствующих субъектов разработаны предложения и рекомендации по применению этого опыта в условиях Узбекистана. В процессе исследования были проанализированы мнения экономистов, направленные на обеспечение ликвидности и финансовой устойчивости хозяйствующих субъектов, а также изложена точка зрения автора. Наряду с этим рассмотрены существующие проблемы, возникающие при применении зарубежного опыта в обеспечении ликвидности и финансовой устойчивости хозяйствующих субъектов в Узбекистане.

Ключевые слова: ликвидность, финансовая устойчивость, оборотные активы, денежные средства, товарно-материальные запасы, краткосрочные обязательства, кредиторская задолженность, дебиторская задолженность.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli¹ Farmoni bilan tasdiqlangan "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi"da milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash, yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga kengaytirish va investitsiya muhitining jozibadorligini kuchaytirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan. Strategiyada, shuningdek, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan, 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va barqaror daromad manbalarini shakllantirish uchun zarur sharoitlar yaratish hamda xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga, eksportdagi ulushini esa 60 foizga yetkazish maqsad qilingan [1].

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



Mazkur ustuvor yo'nalishlarning samarali amalga oshirilishi, avvalo, xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bevosita bog'liqdir. Iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi, global bozorlar bilan integratsiya va investitsiya oqimlarining ko'payishi sharoitida xo'jalik subyektlarining moliyaviy barqarorligi ularning iqtisodiy faolligi va raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omil sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ushbu maqolada xorijiy tajribalar asosida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi va likvidligini ta'minlashning nazariy hamda amaliy jihatlari o'rganiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari bir qator xorijiy, jumladan MDH mamlakatlari va mahalliy olimlar hamda tadqiqotchilar tomonidan bir necha yillardan buyon izchil o'rganib kelinmoqda. Ular o'z tadqiqotlarida likvidlik va moliyaviy barqarorlikning konseptual asoslari bilan birga, ushbu yo'nalishda yuzaga keladigan muammolar bo'yicha ham ilmiy-nazariy qarashlarini bayon etganlar. Quyida ayrim mualliflarning qarashlari tahlil etiladi.

A. Kurilovning fikriga ko'ra, korxonada mulkdorlari uchun likvidlik yetarli bo'lmasa, bu foydaning kamayishi, nazoratni yo'qotish va korxonada kapitalning qisman yoki to'liq yo'qolishiga olib keladi. Kreditorlar uchun esa likvidlik yetishmasligi qarzni asosiy summasi va foizlarining o'z vaqtida to'lanmasligi, shuningdek, qarzga berilgan mablag'larning qisman yoki to'liq yo'qolishi xavfini tug'diradi [2].

A. Muxachyova, Ye. Morozova va Ye. Pastuxova o'z tadqiqotlarida korxonada likvidlikni oshirish usullarini quyidagicha bayon etganlar:

- ishlab chiqarishni aylanma mablag'larni qayta taqsimlash, zaxiralarni kamaytirish va likvid aktivlarni ko'paytirish hisobidan optimallashtirish uchun resurslarni boshqarishning samarali tizimini yaratish;
- moliyaviy majburiyatlarni kamaytirish va ularni ta'minlash uchun zarur bo'lgan real likvid aktivlarni ko'paytirishga yo'naltirilgan moliyaviy barqarorlashtirish mexanizmlarini qo'llash;
- debitor qarzdorlikni qayta moliyalashtirish hamda bu asosda faktoring va forfeyting mexanizmlaridan foydalanish orqali pul mablag'larini ko'paytirish, shuningdek, debitor qarzdorlik aylanish tezligini oshirish;
- foyda, rentabellik va tushumni oshirish uchun aylanma aktivlardan intensiv foydalanishni yo'lga qo'yish;
- debitor qarzdorlikni qisqartirish va aylanmadan tashqari aktivlar o'sishini cheklash [3].

V. Kovalyovga ko'ra, kompaniya likvidligi ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun tanlanadigan har qanday variant avvalo miqdoriy jihatdan baholanishi lozim. Ya'ni, bu qarorlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar kutilayotgan foyda prognozi bilan taqqoslanishi kerak [4].

Ye. Zubovaning xulosasida esa korxonaning likvidligi va to'lovga qobiliyatini oshirishga qaratilgan standart choralar mavjudligi ta'kidlangan. Bu choralar, jumladan, foydaning o'sishini ta'minlash, moddiy aktivlar qiymati va debitor qarzdorlik hajmini kamaytirish, shuningdek, kapitalning optimal tarkibini tanlash orqali amalga oshiriladi [5].

Taniqli iqtisodchilar Laurence J. Gitman va Chad J. Zutter ta'kidlaganidek, likvidlik kompaniyaning moliyaviy sog'lomligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir [6]. Ularning fikricha, moliyaviy barqarorlik va likvidlik ko'rsatkichlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular birgalikda korxonaning moliyaviy mustahkamligi va investitsiyaviy jozibadorligini belgilaydi.

Mazkur maqolada xorijiy davlatlar tajribasida kompaniyalarning likvidlik holati va unga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan hamda O'zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni qo'llash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda metodologik yondashuvlarning muhim yo'nalishlaridan biri – likvidlik va moliyaviy barqarorlikni baholash uslublarini aniqlashdir. Ushbu tadqiqotda ilmiy maqolalar, statistik ma'lumotlar, xorijiy davlatlar kompaniyalarining moliyaviy ko'rsatkichlari hamda iqtisodchilarning ilmiy qarashlari asos sifatida qabul qilindi. Olingan ma'lumotlar induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, baholash usullari orqali tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Taraqqiy etgan mamlakatlarning xo'jalik amaliyotida tijorat banklari kreditlash faoliyatini takomillashtirganligi, kompaniyalar joriy aktivlari tarkibida pul mablag'lari ulushining yuqoriligi, naqd pulsiz to'lovlarning umumiy hajmida hujjatlashtirilgan akkreditivlar va cheklar orqali amalga oshirilgan to'lovlarning nisbatan katta ulushga ega ekanligi xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Biz quyida dunyoning eng yirik transmilliy kompaniyalaridan biri bo'lgan AQShning "General Motors" kompaniyasining likvidligi holatini baholaymiz.



1-rasm. "General Motors" kompaniyasining joriy likvidlilik koeffitsiyenti, [7].

1-rasmdan aniq ko'rinadiki, "General Motors" kompaniyasining joriy likvidlilik koeffitsiyenti 2019–2022-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, kompaniyaning joriy likvidlilik koeffitsiyenti 2023-yilda 2017-yilga nisbatan sezilarli darajada (0,22 foizli punkt) oshgan. Bu holat kompaniya likvidliligini ta'minlash nuqtai nazaridan ijobiy natija hisoblanadi.

Kompaniyaning joriy likvidliligini ta'minlash joriy aktivlar bilan joriy majburiyatlar o'rtasidagi mutanosiblikni saqlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. O'z navbatida, bu mutanosiblikni ta'minlash joriy aktivlar va joriy passivlar tarkibini optimallashtirishni taqozo etadi.

1-jadval. "General Motors" kompaniyasi joriy aktivlarining tarkibi, [7] jamiga nisbatan foizda.

Joriy aktivlar tarkibi	Yillar						
	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Pul mablag'lari	22,1	26,7	25,7	23,8	24,4	19,2	17,8
Bozor qimmatli qog'ozlari	11,8	6,7	5,4	11,3	9,8	12,2	6,9
Qisqa muddatli debitor qarzdorlik	41,2	42,7	44,6	42,5	41,5	46,9	50,5
Tovar-moddiy zaxiralar	14,7	12,0	13,5	12,5	15,8	12,9	15,8
Boshqa joriy aktivlar	10,2	11,9	10,8	9,9	8,5	8,8	9,0
Joriy aktivlar – jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

1-jadvaldan aniq ko'rinadiki, 2017–2023-yillarda "General Motors" kompaniyasining joriy aktivlar tarkibida eng yuqori ulush qisqa muddatli debitor qarzdorlik va pul mablag'lariga to'g'ri keladi. 2021–2023-yillarda pul mablag'lar ulushining pasayishi esa ushbu davrda debitor qarzdorlik ulushining oshishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, 2017–2019-yillarda qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarning ulushi pasayish tendensiyasini namoyon qilgan. 2023-yilda bu ulush 2017-yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan. Bu holat kompaniyaning joriy hisob raqamlarida pul mablag'lar yetishmasligi va bu muammoni bartaraf etish maqsadida bir qator qimmatli qog'ozlarni sotgani bilan izohlanadi.

Tahlildan ko'rinadiki, 2023-yilda tovar-moddiy zaxiralarning joriy aktivlar tarkibidagi ulushi 2017-yilga nisbatan oshgan. Bu esa, ishlab chiqarish kengaygani natijasida xom-ashyo talabining ortganligidan dalolat beradi.

2-jadval. "General Motors" kompaniyasi joriy majburiyatlarining tarkibi, [7] jamiga nisbatan foizda.

Joriy majburiyatlar tarkibi	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Kreditor qarzdorlik	30,3	26,8	25,0	24,1	27,0	29,7	29,8
Qisqa muddatli qarzlarning joriy qismi	34,2	47,6	42,8	45,6	44,6	41,7	40,4




Hisoblangan majburiyatlar	35,5	25,6	32,2	30,3	27,0	28,6	29,8
Joriy majburiyatlar – jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2017–2023-yillarda “General Motors” kompaniyasining joriy majburiyatlari tarkibida eng yuqori ulush qisqa muddatli qarzlilar va uzoq muddatli qarzlarning joriy qismiga to'g'ri kelgan. Bu holat kompaniya tomonidan resurslar jalb qilishda qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar emissiyasi va tijorat banklaridan kredit olish amaliyoti samarali yo'lga qo'yilganligini ko'rsatadi.

2020–2023-yillarda qisqa muddatli kreditor qarzdorlik ulushi oshgan. Bu esa joriy majburiyatlar tarkibida boshqa qarz turlarining pasayganligi bilan izohlanadi. Xuddi shunday, hisoblangan majburiyatlar ulushi ham 2021–2023-yillarda oshish tendensiyasini ko'rsatgan.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga oid ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy barqarorlik quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

- subyektning ichki va tashqi salbiy omillarga bardosh bera olish qobiliyati;
- ishlab chiqarish, sotish va moliyalashtirish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash;
- investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatining mavjudligi;
- yetarli darajadagi rentabellikni ta'minlovchi miqdordagi sof foydaga ega bo'lish.



2-rasm. “General Motors” kompaniyasi aktivlarining rentabellik darajasi, foizda, [7].

2-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, “General Motors” kompaniyasining aktivlar rentabelligi 2019–2021-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2023-yilda esa bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan yuqorilagan. Sof foydaning o'sish sur'ati jami aktivlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lgani bu holatni izohlaydi: 2023-yilda sof foyda 22,9 %ga, jami aktivlar esa 20,1 %ga oshgan.

Umuman olganda, aktivlar rentabelligi kompaniya moliyaviy barqarorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Ushbu ko'rsatkichning yuqori va barqaror bo'lishi uchun sof foyda va aktivlar o'sishi o'rtasida mutanosiblik zarur.

Shuningdek, kompaniya o'z kapitalining passivlardagi salmog'i ham moliyaviy barqarorlikni tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

3-jadval. “General Motors” kompaniyasi o'z kapitalining miqdori va darajasi [7].

Ko'rsatkichlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
O'z kapitali miqdori, mln. AQSh dollari	36200	42777	45957	49677	65815	71927	68189
O'z kapitalining passivlar hajmidagi salmog'i, %	17,0	18,8	20,2	21,1	26,9	27,2	24,8

3-jadvaldan ko'rish mumkinki, kompaniyaning o'z kapitali 2017–2022-yillarda izchil o'sib borgan. 2023-yilda bu ko'rsatkich 2017-yilga nisbatan 88,4 %ga oshgan. Bu esa kompaniya moliyaviy barqarorligini mustahkamlovchi ijobiy omildir.



4-jadval. BASF kompaniyasining kapitali, joriy majburiyatlari va kapitalning joriy majburiyatlarga nisbatan darajasi [8].

Ko'rsatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Kapital, mln. Yevro	42350	34398	42081	40923
Joriy majburiyatlar, mln. Yevro	80292	86950	87383	84472
Kapitalning joriy majburiyatlarga nisbatan darajasi, %	52,7	39,6	48,2	48,4

4-jadvaldan ko'rinadiki, BASF kompaniyasining kapitali 2023-yilda 2020-yilga nisbatan 3,4 foizli punktga kamaygan. Kapitalning joriy majburiyatlarga nisbati ham 4,3 foizli punktga pasaygan. Bu holatlar kompaniyaning to'lovga qobiliyatini salbiy jihatdan tavsiflaydi.

Shuningdek, joriy majburiyatlar 2023-yilda 2020-yilga nisbatan 3,4 %ga oshgan bo'lib, bu qimmatli qog'ozlar bo'yicha to'lovlarning ortganligi bilan bog'liq.

5-jadval. "TOSHIBA" korporatsiyasida (Yaponiya) sotish hajmi va operatsion daromadlar, mlrd. ien [9].

Ko'rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Sotish hajmi	3 947	3 693	3 389	3054	3 336
Operatsion daromadlar	86	35	130	104	158

5-jadval ma'lumotlariga ko'ra, "TOSHIBA"da 2019–2023-yillarda sotish hajmi pasaygan. Bu, birinchi navbatda, COVID-19 pandemiyasi ta'sirida jahon bozorlarida talabning kamayishi bilan izohlanadi.

Operatsion daromadlar 2022-yilda 2021-yilga nisbatan kamaygan bo'lsa-da, 2023-yilda u sezilarli darajada oshgan. Bu holat pandemiya cheklovlarining yumshatilishi bilan bog'liq. Shuningdek, korporatsiyaning joriy majburiyatlarining kamayishi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda ijobiy holat hisoblanadi.

Umuman olganda, taraqqiy etgan mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanganligi kompaniyalarga zarur moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini yaratadi. Balansdagi qimmatli qog'ozlar garovi evaziga uzoq muddatli kreditlar olish imkoniyati mavjud.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi va likvidligi – ularning bozordagi raqobatbardoshligini va uzoq muddatli muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Bugungi global iqtisodiy sharoitda rivojlangan davlatlar turli moliyaviy boshqaruv strategiyalari va nazorat tizimlarini ishlab chiqqan. Xorijiy tajribalarni o'rganish va O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali ichki moliyaviy boshqaruvni yanada takomillashtirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidligini ta'minlashda rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish va uni mahalliy sharoitlarga moslashtirish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, shuningdek prognozlash va risklarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda xorijiy tajribani to'liq qo'llashga to'sqinlik qilayotgan bir qator muammolar mavjud. Xususan, moliyaviy boshqaruv madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi, ko'plab mahalliy korxonalarda zamonaviy moliyaviy boshqaruv tamoyillari va standartlarining to'liq joriy etilmaganligi, pul oqimini rejalashtirish va prognozlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarning pastligi ushbu yo'nalishdagi asosiy kamchiliklardandir. Shuningdek, raqamlashtirish darajasi va texnologik infratuzilmaning yetishmasligi ham muhim omil bo'lib, ERP tizimlari va moliyaviy boshqaruv dasturlarining ko'plab korxonalarda sust joriy qilinayotgani, texnik jihozlanish darajasining pastligi va IT infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmagani bunga misol bo'la oladi. Yana bir muhim muammo – bu malakali kadrlar yetishmasligi bo'lib, zamonaviy moliyaviy tahlil, naqd pul oqimini boshqarish va risklarni baholash bo'yicha yetarli bilim va amaliy tajribaga ega mutaxassislar sonining kamligi, shuningdek fintex texnologiyalarini egallash salohiyatining pastligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, moliyaviy boshqaruv va likvidlikni ta'minlashga oid maxsus normativ hujjatlar va qo'llab-quvvatlovchi dasturlarning yetarli emasligi, shuningdek bank tizimi va moliyaviy nazorat organlari tomonidan xorijiy amaliyotni to'liq moslashtirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarning o'z vaqtida yangilanmasligi mavjud holatni yanada murakkablashtiradi. Moliyaviy ochiqlik va shaffoflik darajasi ham yetarlicha emas: ko'plab korxonalar moliyaviy hisobotlarni to'liq va ishonchli yuritmaydi, bu esa xorijiy boshqaruv tizimlarini joriy etishda muammolar tug'diradi. Audit va moliyaviy nazorat tizimlarining zaifligi ham bu jarayonda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy resurslarning cheklanganligi, xususan kredit liniyalari, sug'urta xizmatlari va moliyaviy vositalarning (derivativlar, obligatsiyalar) yetarlicha rivojlanmaganligi, shuningdek ularning yuqori qiymati ham likvidlikni boshqarishda jiddiy to'siq hisoblanadi. Bundan tashqari, O'zbekiston bozorining o'ziga xos iqtisodiy sharoitlari mavjud bo'lib, bu xorijiy modellarni



to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish imkoniyatini cheklaydi va ularni mahalliy sharoitga moslashtirishni talab qiladi. Xorijiy tajribani samarali joriy etish uchun mamlakatda moliyaviy madaniyatni oshirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, mutaxassislar malakasini muntazam oshirib borish, shuningdek huquqiy va institutsional bazani takomillashtirish zarur. Umuman olganda, rivojlangan mamlakatlarning likvidlikni ta'minlashdagi ilg'or tajribasi va uni boshqarish mexanizmlarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirib tatbiq etish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini oshirish hamda mamlakat iqtisodiy o'sishiga salmoqli hissa qo'shish mumkin. Zamonaviy, tizimli va ilg'or yondashuvlarga asoslangan likvidlik siyosati esa har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning barqaror faoliyat yuritishi uchun muhim zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. // www.lex.uz
2. Kurilova A.A. Ekonomicheskoye protsessy vnutrennego kontrolya kak elementa finansovogo mekhanizma upravleniya na predpriyatii avtomobilnoy promyshlennosti // Azimut nauchnykh issledovaniy: ekonomika i upravleniye, 2014. – № 2. – S. 34–37.
3. Muxachyova A.V., Morozova Ye.A., Pastuxova Ye.Ya. Retrospektivnaya ekonomika: preodoleny li posledstviya "nepriznannogo" ekonomicheskogo krizisa 2014 goda v industrialnykh regionax Rossii? // Munitsipalitet: ekonomika i upravleniye, 2019. – № 2 (27). – S. 18–31.
4. Kovalyov V.V. Analiz xozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiya. M.: OOO "TK Velbi", 2013. – 244 s.
5. Zubova Ye.V. Problemy platezhesposobnosti i likvidnosti rossiyskix predpriyatiy // Innovatsionnye texnologii v mashinostroyenii, obrazovanii i ekonomike, 2017. T. 5. – № 2 (4). – S. 56–60.
6. Lawrence J. Gitman, Chad J. Zutter. Principles of Managerial Finance. Fourteenth Edition. New York: Pearson Education, 2018. 928 pages.
7. General Motors kompaniyasining yillik hisobotlari ma'lumotlari.
8. BASF kompaniyasining yillik hisobotlari ma'lumotlari.
9. TOSHIBA korporatsiyasining yillik hisobotlari ma'lumotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>